





2021- yil yanvar-noyabr oylari uchun Namangan viloyatidagi qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Namangan viloyatida jami **5001,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **109,8 %** ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

2021- yil 1- dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni **2456** tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **200** taga oshgan.



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		Jamiga nisbatan ulushi % 01.12.2021
	01.12.2020- yil	01.12.2021- yil	
Namangan viloyati	2256	2456	100,0
Namangan sh.	734	767	31,2
tumanlar:			
Mingbuloq	82	82	3,3
Kosonsoy	267	264	10,8
Namangan	123	134	5,5
Norin	113	133	5,4
Pop	90	112	4,6
To'raqo'rg'on	92	103	4,2
Uychi	208	237	9,7
Uchqo'rg'on	138	175	7,1
Chortoq	151	178	7,2
Chust	167	168	6,8
Yangiqo'rg'on	91	104	4,2




Ma'lumot uchun: Viloyatdagi soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Namangan shahri (31,2 %), Kosonsoy tumani (10,8 %) va Uychi (9,7 %) tumanlarida, hamda eng kam ulushni Mingbuloq tumani (3,3 %), Yangiqo'rg'on tumani (4,2 %), To'raqo'rg'on tumani (4,2 %), Pop (4,6 %) tumanlarida qayd etildi.



Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 257,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 102,1 mlrd. so'mga kamaygan bo'lib, 2020- yilning mos davriga 65,8 % ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Namanagan shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **64,8 %**) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-noyabr
- 2020- yil yanvar-noyabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar- noyabr oylida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,9 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-noyabr oyi ko'rsatkichiga nisbatan 3,6 % punktga ortdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **116,8 %** ni tashkil etgan holda **3096,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.





Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **32,9 %** ni tashkil etdi yoki **1647,5** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan **108,9 %** ni tashkil etdi.






Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 187,5 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 89,4 % qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 4814,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 110,8 % ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda 3,7 % va 96,3 % ni tashkil etdi.

IQTSODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd. so'mda)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida





Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2021- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk *	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Namangan viloyati	5001,7	187,5	100,0	4814,2	100
Namangan sh.	1393,3	15,4	8,2	1377,9	28,5
tumanlar:					
Mingbuloq	202,6	9,5	5,1	193,1	4,0
Kosonsoy	396,4	13,3	7,1	383,1	8,0
Namangan	454,5	11,1	5,9	443,4	9,2
Norin	189,1	7,4	3,9	181,7	3,8
Pop	332,3	46,1	24,6	286,2	6,0
To'raqo'rg'on	295,7	24,7	13,2	271,0	5,7
Uychi	566,5	14,3	7,6	552,2	11,5
Uchqo'rg'on	283,4	6,3	3,4	277,1	5,7
Chortoq	372,7	17,6	9,4	355,1	7,4
Chust	251,0	7,4	3,9	243,6	5,1
Yangiqo'rg'on	264,2	14,4	7,7	249,8	5,2

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi % da
Namangan viloyati	5001,7	109,8	100,0
Namangan sh.	1393,3	100,1	27,9
tumanlar:			
Mingbuloq	202,6	156,1	4,1
Kosonsoy	396,4	105,4	7,9
Namangan	454,5	123,3	9,1
Norin	189,1	90,4	3,8
Pop	332,3	97,9	6,6
To'raqo'rg'on	295,7	122,5	5,9
Uychi	566,5	117,8	11,3
Uchqo'rg'on	283,4	108,5	5,7
Chortoq	372,7	123,7	7,5
Chust	251,0	107,8	5,0
Yangiqo'rg'on	264,2	117,9	5,3

2021- yil yanvar-noyabr oylarida boshqa hududlarga nisbatan eng katta hajm Namangan shahar (**1393,3** mlrd. so'm) Uychi (**566,5** mlrd.so'm), Namangan tuman (**454,5** mlrd. so'm), Kosonsoy (**396,4** mlrd. so'm), Chortoq (**372,7** mlrd. so'm) Pop (**332,3** mlrd. so'm), tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)



Namangan viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi